ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTIDA “AYOL” OBRAZI TASVIRI (JAVLON JOVLIYEVNING “AYOL” VA ZULFIYA QUROLBOY QIZINING “AYOL” HIKOYALARI MISOLIDA)

Nilufar Ne’matullayeva,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 1-kurs magistranti
E-mail: nilufarnematullayeva99@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-9253-1586

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19629565

Annotatsiya. *Mazkur maqolada istiqlol davri o‘zbek adabiyotida “ayol” obrazi talqini tahlil qilinadi. Xususan, Javlon Jovliyevning “Ayol” hamda Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyalari misolida zamonaviy adabiyotda ayol siymosining badiiy ifodasi, uning ichki kechinmalari, ijtimoiy o‘rni va ruhiy olami yoritiladi. Tadqiqotda har ikki asarda ayol obrazi turli badiiy yondashuvlar orqali tasvirlangani, biroq ularni umumlashtiruvchi jihat – ayolning sabr-toqati, fidoyiligi, mehr-muhabbati va jamiyatdagi muhim o‘rni ekanligi ko‘rsatib beriladi.*

Shuningdek, asarlarda ayolning nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy hayotdagi faol subyekt sifatida namoyon bo‘lishi, uning orzu-intilishlari va ichki ziddiyatlari ochib beriladi. Mualliflar tomonidan yaratilgan obrazlar orqali istiqlol davri adabiyotida ayolga bo‘lgan munosabatning yangilanganligi, uning shaxs sifatidagi qadr-qimmati yuksalganligi tahlil etiladi.

Ushbu maqola istiqlol davri o‘zbek nasrida ayol obrazining o‘ziga xos badiiy talqinini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Javlon Jovliyev, Zulfiya Qurolboy qizi, “ayol” obrazi, istiqlol davri adabiyoti, badiiy tahlil, ijtimoiy muammo, syujet, kompozitsiya, adabiyotshunoslik.*

Аннотация. *В данной статье анализируется интерпретация образа «женщины» в узбекской литературе периода независимости. В частности, на примере рассказов «Женщина» Джавлона Джовлиева и «Женщина» Зульфии Курольбой кызы освещается художественное выражение женской фигуры в современной литературе, её внутренние переживания, социальная роль и духовный мир. Исследование показывает, что в обоих произведениях образ женщины изображен с помощью различных художественных подходов, но общим аспектом, объединяющим их, является терпение, преданность, любовь и важная роль женщины в обществе. Также произведения раскрывают проявление женщины не только как активного субъекта в семейной жизни, но и в общественной жизни, её стремления и внутренние конфликты. Через созданные авторами образы анализируется обновлённое отношение к женщинам в литературе периода независимости и повышение их достоинства как личности. Данная статья служит для раскрытия уникальной художественной интерпретации образа женщины в узбекской прозе периода независимости.*

Ключевые слова: *Джавлон Джовлиев, Зульфия Курольбой цицзы, образ «женщины», литература периода независимости, художественный анализ, социальная проблема, сюжет, композиция, литературная критика.*

Abstract. *This article analyzes the interpretation of the image of "woman" in Uzbek literature of the independence period. In particular, the artistic expression of the female figure in modern literature, her inner experiences, social role and spiritual world are highlighted using the stories "Woman" by Javlon Jovliyev and "Woman" by Zulfiya Kurolboy kizi. The study shows that in both works the image of a woman is depicted through different artistic approaches, but the common aspect that unites them is the*

patience, dedication, love and important role of a woman in society. Also, the works reveal the manifestation of a woman not only as an active subject in family life, but also in social life, her aspirations and internal conflicts. Through the images created by the authors, the renewed attitude towards women in the literature of the independence period and the increase in her dignity as a person are analyzed. This article serves to reveal the unique artistic interpretation of the image of a woman in Uzbek prose of the independence period.

Keywords: *Javlon Jovliyev, Zulfiya Kurolboy qizi, the image of "woman", literature of the independence period, artistic analysis, social problem, plot, composition, literary criticism.*

Kirish. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida istiqlol davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan badiiy asarlar, jumladan, hikoyalar jamiyat hayotida murakkab ijtimoiy, ma’naviy axloqiy muammolarni aks ettirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda yozuvchilarimiz boshqa janrlarga nisbatan hikoya janrida ko‘proq ijod qila boshladi. Ayniqsa, Ulug‘bek Hamdam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi, Javlon Jovliyev singari iste’dodli yozuvchilar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili. Yosh yozuvchi Javlon Jovliyev dastlab o‘zining “Qo‘rqma” romani bilan o‘zbek zamonaviy adabiyotida kitobxonlar qalbidan munosib joy egalladi. Ushbu roman haqida bir qancha taqrizlar yozildi. Jumladan, adabiyotshunos olim Bahodir Karim shunday fikr bildiradi: *“Qo‘rqma” – his-hayajon romani. Undagi badiiy g‘oya keng miqyosli, unda millat va Vatan dardi bor. Bu muammo bugun va bir asr oldingi yoshlar hayoti misolida tush va xush oralig‘ida, tajohili orifona yo‘sinda ba’zan piching va kesatiq qamrovida badiiy ifoda etiladi. Muallif mudroq ko‘ngillarni uyg‘otishni istaydi; odamlar o‘z yaratilish tiynatiga chuqur nazar solishini xohlaydi”.*

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-adabiy tahlil, badiiy matnni interpretatsiya qilish hamda tavsifiy-analitik yondashuvlardan foydalanildi. Javlon Jovliyev va Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi ayol obrazlari syujet, kompozitsiya va badiiy vositalar asosida o‘zaro solishtirilib o‘rganildi. Shuningdek, obrazlarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini aniqlashda umumlashtirish va konseptual tahlil metodlari qo‘llanildi.

Tahlillar va natijalar. Bu davr adabiyotida ayollarga bo‘lgan munosabat mustaqillik davri voqealari, shuningdek, o‘tgan asr muammolari, jamiyat hayoti va turmush tarzi haqida keskin munosabatlar bildiriladi. Hikoyalarda yozuvchi o‘zining hajman kichik, mazmunan yirik hikoyalari orqali kitobxon psixologiyasiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ular orasida aynan ayollarning turmush tarzi va ruhiyati aks ettirilgan “Ayol” hikoyasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol ruhiyati, jamiyatdagi o‘rni va ichki kechinmalarini yorituvchi hikoya sifatida baholandi.

Javlon Jovliyev o‘zining “Ikki qalb uchrashuvi” nomli hikoyalar to‘plamidan joy egallagan “Buxoro, Buxoro, Buxoro”, “Ayol”, “Qizlar bilan uchrashuv”, “Ozodlik”, “Ikki qalb uchrashuvi” nomli hikoyalarida ayol ruhiyati tasviri alohida o‘rin egallagan. Masalan,

o‘tgan asrning eng katta muammolaridan biri bo‘lgan ziyolilarning qatag‘on qilinishi yoki nohaq qamoqqa tashlanishi yoritilgan “Ozodlik” hikoyasida ham sodda o‘zbek ayoli tasviri mukammal tarzda ochib berilgan. Hikoyaning bosh qahramoni ayol qamoqda yotgan turmush o‘rtog‘ini ozod qilish uchun qishloq idorasida ishlovchi tog‘asining yoniga boradi va undan yordam so‘raydi. Hikoyaning kirish qismida, ularning suhbatida, aybdorning aybi uning ilmli ekanligidagi aniq bo‘ladi. Ayni damda kichik farzandi bilan qiynalib qolgan ayol qanday qilib bo‘lmasin turmush o‘rtog‘ini qutqarishni xohlaydi. Bu holat yillar davomida shakllangan o‘zbek ayoliga xos xususiyat emasmi? Uning oldida bitta chora, yechim bitta, ya’ni “kattalarga” ariza bilan murojaat qilish. Ariza yozish jarayonida Javlon Jovliyev sodda ayol portretini shunchalar ishonarli jonlantirganki, hikoya ichida yashagandek bo‘lasiz. *“– Tog‘a..! Yordam bering, tog‘a, bolalarim haqqi…*

Ayol ortiq gapirolmadi. Oppoq yuzlaridan dona-dona yosh tomchilari dumalab tushardi. Ko‘zlaridanmas, lablaridan yosh quyulib kelayotgandan, kafti bilan og‘zini yopib oldi. Qishloq idorasining pastqam derazasidan yong‘oqning shapaloqday yam-yashil barglari ko‘rinib turar, barglar orasida esa quyoshning parchalangan nurlari aks etardi”.

O‘zbekning sodda ayoli chorasiz, madorsiz madad izlab, turmush o‘rtog‘ini qutqarish ilinjida tunlarni bedor o‘tkazib, uzundan uzun maktub yozadi. Yozuvchi hikoya tuzilishini turli boblarga bo‘ladi. Hikoya tasviri turlicha bo‘lsada, ayol, ona tasviri mahorat bilan yoritilgan. Hikoyada e’tiborga molik yana bir jihat ona va bola o‘rtasidagi munosabat. Mahbus alahsirar ekan ko‘z oldida gavdalangan onasi unga bir gap aytdi xolos: *“Xarom yema! Xarom yema, xarom yegan odam gadoydir... Pora olgan odamning, ko‘chada qo‘l ochib turgan tilanchidan farqi yo‘q. Ikki dunyoying kuyib ketadi, polvonim...”*

Yozuvchi ona obrazi orqali kuch, tarbiya, halollik singari beqiyos xislatlarning ham katta ahamiyatga egaligini yoritib bergan. Ushbu hikoyada ham ona-ayol timsoli farzand uchun ishonch, mehr, poklik qo‘rg‘oni sifatida ko‘rsatib berilgan. Hikoya yakuni fojeali yakun topgan bo‘lsa ham, so‘nggida ayolning: “*Kuyovingiz chiqadi-ya*” [1.179], degan savoli kitobxon uchun eng ta’sirli qism bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Javlon Jovliyev o‘z hikoyalarida o‘tgan asrning og‘ir kunlarida paxta dalalarida mashaqqat bilan ter to‘kkan ayollar obrazini kitobxonga rangli bo‘yoqlarda yetkazib beradi. Ayniqsa, hikoya qahramonini mehnatkash, o‘z oilasi uchun har narsaga tayyor, bu borada tinimsiz mehnat evaziga holdan toygan, o‘zligini unutgan o‘zbek ayoli sifatida tasvirlagan. Bugungi kun kitobxon yoshlari uchun bu bir muncha bo‘rttirishdek ko‘rinishi mumkin, ammo yozuvchi bir ayol timsolida ko‘plab millat ayollari taqdirini yoritishga harakat qilgan.

Zamonasining yana bir iste'dodli yozuvchisi hisoblangan Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" nomli hikoyalar to'plamida "Ayol", "Tafakkur", "Ajal chorlovi", "O, hayot", "Qadimiy qo'shiq", "Muhabbat va nafrat", "Ko'lanka", "Momo Havo", "Kelin", "To'xtab qolgan vaqt suvratlari", "Rashk", "Kuygan shahar" nomli hikoyalar joy egallagan bo'lib, aksariyat hikoyalarida asosiy mavzu ayol ruhiyati, uning ichki kechinmalari, tuyg'ular iztirobi alohida o'rin egallaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ham ayolning qadr-qimmati, aynan o'zini qadrlagandagina boshlanishini uqtirganday bo'ladi. Shuningdek, Javlon Jovliyevdan farqli ravishda "ayol" obrazini yaratishda nazokat, go'zallik, ayolga xos bo'lgan xislatlardan ko'proq foydalangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ikki hikoya ham ayni "Ayol" nomi bilan nomlangan bo'lsada, bir-biriga umuman yaqin bo'lmagan ikki ayol, ikki rafiqa, ikki ona tasviri bayon etilgan.

Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasida esa bedavo dardga chalingan, umri o'z yakuniga yetib borayotgan ayol – Nazokat obrazi tasvirlangan. E'tibor beradigan bo'lsak, yozuvchi o'z qahramoniga mos va xos Nazokat ismini beradi. Hikoyada ayollarga xos bo'lgan sabr, matonat go'zal tarzda ko'rsatib berilgan. O'z og'riqlariga qarshi kurashayotgan ayol ayni damda turmush o'rtog'i farzandlarini undan xavotir olmasligini istaydi. Yana bir insonni titratadigan holat, u shu holatda ham o'z ayollik jozibasini yo'qotishni xohlamasligidir. Aynan quyidagi o'rinda biz ushbu holatni ko'rishimiz mumkin:

"– Bilaman, oz qolganini bilaman. Lekin bunday xunuk alfozda o'lishni istamayman. Istamayman!.." Ayol hattoki o'lim oldi ham – ayol! O'z turmush o'rtog'i, farzandlari, yaqinlari oldida bu holatda ko'rinishni xohlamaydi.

Ikki ayol, ikki taqdir, ikki xil oilaviy munosabat tasviri. Javlon Jovliyev o'zining ayol obrazini ifodalashda sodda, ammo ma'nosi chuqur bo'lgan holatda ifodalagan. Oddiy ishchi ayolning tun-u kun mehnati, tinimsiz mehnatdan charchagan, hatto o'ziga e'tibor va oro bera olmaydigan darajada madorsiz. U oila yukini yolg'iz o'zi gardaniga olgan. Oila a'zolari farzandlar va er ishsiz, qolaversa e'tiborsiz. Hikoyani o'qigan kitobxon buni his qila oladi, dod deyishga tayyor turadi, qaysidir ma'noda bunga ayolni ayblaydi. Lekin ayolning hayotda yashab qolishiga, yoki o'zgarishiga umid borini yozuvchi mahorat bilan qistirib o'tadi. Ayol yolg'iz o'rtancha o'g'lidan umid kutadi. Birgina shu o'g'il onasiga yordam beradi. Bugungi kun uchun ham begona bo'lmagan ushbu mavzu uchun yozuvchi yechim izlagan. Hikoyaning ta'sirli va davr muammosi yoritilgan qismi oilasi uchun jon kuydirayotgan onaning u oilada o'rni yo'qligi. Ikkinchi hikoyamizda esa buning ayni teskarisi. Ayolining og'ir ahvolida har doim unga yelkadosh bo'luvchi, sabrli va turmush o'rtog'ini qadrlovchi, sevuvchi obraz. Ikkala yozuvchi ham hikoyaning bosh qahramoni

hisoblangan ayol obrazini ifodalashda o‘z yondashuvlari orqali zamon va shaxs muammosini yetarlicha ochib bergan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, istiqlol davri o‘zbek adabiyotida ayol obrazini ifodalash, ayollar ya’ni o‘zbek onalarining o‘rnak bo‘lishga loyiq bo‘lgan xislatlarini bugungi kun yoshlari ongiga singdirish, qadriyatlarni saqlash va davom ettirishni ko‘zda tutadi. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda badiiy asar orqali o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash bizning asosiy burchimiz bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Javlon Jovliyev. Ikki qalb uchrashuvi (hikoyalar). Ayol. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019. – 192 b.
2. Zulfiya Qurolboy qizi. Ayol // hikoya. – Toshkent: Sharq, 2016. – 320 b.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. Ibrohim Haqqul. Badiiy tafakkur va ruhiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
6. Umarali Normatov. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. Dilmurod Quronov. Adabiy jarayon va tanqid. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
8. Hotam Umurov. Badiiy obraz nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2004.
9. Baxtiyor Karimov. Hozirgi o‘zbek nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
10. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Badiiy asarni tahlil qilish usullari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
11. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
12. Hozirgi o‘zbek nasrida ayol obrazi talqini // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020.